



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№ 10



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 292 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO‘LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O‘RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoira Azimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO‘RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARI O‘RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o‘g‘li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI.....	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o‘g‘li	
TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o‘g‘li	
O‘ZBEKISTON SANOATINING “YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o‘g‘li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O‘ZBEKISTONDA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI.....	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQRUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O‘SISHGA YERISHISHDA SUN’IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO‘LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO‘LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO‘LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEKANIZMLARI	246
Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich	
TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA “YASHIL” MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI	250
Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna	
INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	255
Muzaffar Raximov	
UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	259
Odamboyev Oybek Ravshanbek o‘g‘li	
INTERNATIONAL ORGANIZATIONS’ APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL	268
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI.....	273
Vohobov Hikmatillo Ma‘mirjon o‘g‘li	
ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА	280
Tohirova Gullola Mirkamolovna	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA‘LIMI BITIRUVCHILARINING O‘RNI	287
Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich	



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA'LIMI BITIRUVCHILARINING O'RNINI



Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich

Jizzax kasbiy ko'nikmalar markazi direktori,
O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
"Iqtisodiyot va turizm" kafedrasida katta o'qituvchisi
ORCID: 0009-0002-2233-1532

Annotatsiya: Maqolada kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari, shuningdek, bu jarayonda kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining ishtiroki tahlil qilingan. Unda oilaviy tadbirkorlikni yanada kengaytirish va samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar hamda istiqbolli takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining bandligi, mehnat sharoiti, istiqboldagi chora-tadbirlar.

Abstract: The article examines the issues of developing small business and family entrepreneurship, as well as the participation of vocational education graduates in this process. Practical recommendations and proposals are provided regarding the prospects for the development of family entrepreneurship.

Key words: small business and family entrepreneurship, employment of vocational education graduates, working conditions, prospective measures.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития малого бизнеса и семейного предпринимательства, а также участие выпускников профессионального образования в этом процессе. Даны практические рекомендации и предложения по перспективам развития семейного предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес и семейное предпринимательство, занятость выпускников профессионального образования, условия труда, перспективные меры.

KIRISH

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida raqobatning keskin chuqurlashib borayotgan sharoitida insonning jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun zarur bo'lgan konseptual asoslarni yaratish, mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. Xalqaro mehnat tashkilotining 2024-yildagi yoshlar bandligining global tendensiyalariga ko'ra, 2023-yilda yoshlarning (15–24 yosh) ishsizlik darajasi 13 foizni yoki 64,9 million kishini tashkil etgan¹. 2024-yil va undan keyingi yillarda bu ko'rsatkich 13 foizdan past bo'lishi prognoz qilingan. 2023-yilda ishsiz yoshlar soni so'nggi 15 yildagi eng past darajaga yetgan bo'lsa-da, ayrim mintaqalarda ishsizlikning o'sishi kuzatilgan. Bugungi kunda kasbiy ko'nikmalarga ega mutaxassislarining nafaqat milliy, balki xalqaro mehnat bozorida ham o'z kasbi bo'yicha ish topishi dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mamlakatimizda aholining bandligi samaradorligini ta'minlash, mehnatga layoqatli aholining keng qatlamini ish bilan ta'minlash, kasb-hunar egallash orqali ularning bandlik darajasini oshirish, mehnat bozori konyunkturasidagi o'zgarishlarni tahlil qilish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jahon mamlakatlari

¹ Глобальные тенденции занятости молодежи в 2024 g.intrel@ach.gov.ru



tajribasi shuni ko'rsatadiki, hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ish bilan bandlik holati va shakllarini an'anaviy yondashuvlardan keskin farqlaydigan yangi bosqichga olib kirdi.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasida “Xalqimizning erkin va farovon hayot kechirishi, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta‘minlash” asosiy maqsadlar sifatida belgilab berilgan [2]. Mazkur strategiyada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablari asosida tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilgan.

Shu nuqtada kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik mehnat bozoriga yangi kirib kelgan, qisqa muddatli kasb-hunar kurslarini tamomlagan yoshlar uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Bu yo‘nalish, bir tomondan, bandlik darajasini oshirsa, ikkinchi tomondan, oilaviy daromad manbalarini kengaytirish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlamoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish bo‘yicha qator huquqiy-me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-aprelda qabul qilingan “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-327-son² Qonuni oilaviy tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi ““Har bir oila-tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3777-son³ qaror ushbu sohada faoliyat yuritayotgan fuqarolarga ko‘plab imtiyozlar va imkoniyatlar yaratdi.

Hududlarni har tomonlama rivojlantirish doirasida 25 mingga yaqin investitsion loyihani amalga oshirish va natijada 256,4 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratish belgilangan [3]. Mazkur dastur doirasida har bir tuman va shaharda, ayniqsa olis va tabiiy-iqlimi murakkab hududlarda aholining moddiy sharoitlarini yaxshilash hamda turmush sifatini oshirish choralari ko‘rilmoqda.

Ushbu vazifalarning nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqish, ularni amaliyotda qo‘llash mexanizmlarini tahlil etish, shuningdek kasb-hunar ta‘limi bitiruvchilarini ish bilan ta‘minlashning strategik yo‘nalishlarini belgilash zarurati aynan shu omillar bilan bog‘liq. Mazkur masalaning yuqori ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va yetarlicha o‘rganilmaganligi ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini yanada oshirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahonning ilg‘or davlatlarida aholining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlik darajasi izchil o‘sib bormoqda. Jumladan, Yaponiyada iqtisodiy faol aholining 70 foizi, Xitoyda 80 foizi, AQShda esa 50 foizi aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, AQShda yalpi ichki mahsulotning (YAIM) qariyb 52 foizi, Yaponiyada 67 foizi ushbu sektor ulushiga to‘g‘ri keladi. Korxonalar soni bo‘yicha ham bu subyektlarning salmog‘i nihoyatda yuqori — AQShda 97,6 foiz, Yaponiyada 99,2 foiz, Germaniyada esa 99,3 foizni tashkil etadi⁴ [4].

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda olib borilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida mehnatga layoqatli aholini samarali ish bilan ta‘minlashga qaratilgan mutlaqo yangi tizim shakllandi. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilanganidek, mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish, shuningdek davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma, kasb-hunar markazlari, ijodiy klublar hamda bandlikka ko‘maklashish muassasalarini tashkil etish chora-tadbirlari muvaffaqiyatli amalga oshirilmog‘da. Ushbu strategiya doirasida tuman (shahar) hokimining yordamchilari instituti samarali faoliyat yuritmoqda, bu esa yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligini ta‘minlash uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda⁵ [5].

Prezidentning “Tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish va ishbilamonlik muhitini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyatiga davlat organlari aralashuvini keskin kamaytirish, huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Shuningdek, banklar tomonidan tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va ajratilayotgan kreditlarning samaradorligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilgan⁶ [6].

Ushbu islohotlar doirasida:

- bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy tamoyillari joriy etildi;
- tijorat banklari faoliyatiga ma‘muriy aralashuvlar keskin kamaytirildi;

2 <https://lex.uz/docs/-2004956>

3 <https://lex.uz/ru/docs/-3772869>

4 <http://www.mspbank.ru>; <http://www.giac.ru>; <http://www.m-economy.ru>

5 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni, lex.uz

6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, www.lex.uz



— mijozlarning o'z mablag'larini erkin boshqarish huquqi kafolatlandi.

Kasb-hunar ta'limini tugatgan va mehnat bozoriga yangi kirib kelayotgan yoshlar orasida tadbirkorlikni rivojlantirishda motivatsiya tizimini kuchaytirish, zarur ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodchi olim G.Q. Abduraxmanovning tadqiqotlariga ko'ra, iqtisodiyotda mehnatni rag'batlantirish tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi zarur [7]:

Birinchidan, moddiy (pul shaklidagi) rag'batlantirish tizimi — xodimning ish haqi miqdorini mehnat sarfi bilan uyg'unlashtirish, shaxsiy daromadning mehnat natijasiga bog'liqligini kuchaytirish orqali samaradorlikni oshiradi.

Ikkinchidan, ijtimoiy xususiyatga ega moddiy bo'lmagan rag'batlantirish tizimi — xodimlarga munosib mehnat sharoitlari yaratish, ijodiy va mazmunli mehnat muhitini ta'minlash, dam olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda jamoada qulay psixologik muhitni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, shaxsni ijtimoiy-motivatsion jihatdan rag'batlantirish tizimi — insonni faqat ishlab chiqarish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy qadriyatga ega shaxs sifatida qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutadi. Ushbu uch yo'nalish uyg'un holda mehnat motivatsiyasining yaxlit tizimini tashkil etadi.

O'zbekistonda aholining turmush darajasi va sifatini oshirish, kambag'allikni qisqartirish, yangi va barqaror ish o'rinlarini yaratish siyosati iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqobatbardoshlikni kuchaytirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, tarkibiy islohotlar bosqichida aholi daromadlari o'sishini ta'minlaydigan, munosib va unumli bandlikni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni shakllantirish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda⁷ [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tadbirkorlikda mehnat munosabatlarining tashkil etilishi, kasb-hunar o'qitish markazlari bitiruvchilarining ish bilan bandligi xususiyatlari, yoshlar orasida samarali bandlikni oshirish hamda bu jarayondagi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Buning uchun dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, guruhlash kabi ilmiy-uslubiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni muvofiqlashtirishning ijtimoiy hamda iqtisodiy mexanizmlari bir nechta asosiy vazifalarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, ish haqiga oid davlat siyosatini shakllantirish, talab va taklif omillarini, ishchi kuchining takror ishlab chiqarish qiymatini hisobga olgan holda tuzatish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Ikkinchidan, iqtisodiy faol aholini, ayniqsa qishloq yoshlari qatlamini kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini tashkil etish muhim. Uchinchidan, uy-joy bozorini shakllantirish hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali ishchi kuchi harakatchanligini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish lozim. To'rtinchidan, ishchi kuchiga bo'lgan talabni rag'batlantirish, xususan qishloq hududlarida investitsiyalar jozibadorligini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish uchun tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlarni joriy etish maqsadga muvofiq. Beshinchidan, eng maqbul demografik siyosat va migratsiya siyosatini amalga oshirish, mehnat muhofazasi choralari orqali ishchi kuchi taklifining optimal darajasiga erishish talab etiladi.

Yuqoridagi omillar mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini to'laqonli aks ettiradi. Shahar va qishloq mehnat bozorlarini tartibga solish shakllari o'xshash bo'lsa-da, qishloq mehnat bozori o'ziga xos xususiyatlarga ega. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida hududiy siyosat qishloq joylarda bandlikni ta'minlashning muhim vositasi sifatida e'tirof etiladi. Shu maqsadda qishloq hududlarida sanoat tarmoqlari, xizmat ko'rsatish sohasi, turizm va xalq hunarmandchiligi rivojlantirilmoqda. Bu ikki asosiy masalaning yechimini ta'minlaydi: birinchidan, oqilona bandlikni qo'llab-quvvatlash va ishsizlikni kamaytirish, ikkinchidan esa, qishloq joylarda demografik bosimni kamaytirish hamda xalq xo'jaligi tizimida ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirish.

Shuningdek, ilmiy-texnik taraqqiyot va mehnat unumdorligining ortishi natijasida qishloq xo'jaligidan siqib chiqarilayotgan agrar ishchilarni qayta kasbga o'qitish maqsadida milliy va hududiy dasturlarda maxsus mablag'lar ajratish nazarda tutilmoqda.

Bugungi kunda ish bilan bandlikning noan'anaviy shakllari – oilaviy tadbirkorlik, yakka tartibdagi tadbirkorlik, kasanachilik, xizmat ko'rsatish, chorvachilik va boshqa faoliyat turlari aholini ish bilan ta'minlashning muhim yo'nalishlariga aylanmoqda. Bu holat ish bilan ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlarini tubdan yangilashni, ularning usul va vositalarini zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

⁷ Jo'rayev T.T. Iqtisodiy resurslar doiraviy aylanish jarayonining nazariy asoslari va samaradorligini oshirish omillari. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006. – B. 14.



Natijada, ish bilan bandlikni ta'minlashda asosiy vosita sifatida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirish, shuningdek, ishchi kuchining samarali taklifini qo'llab-quvvatlovchi xizmatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

Kasb-hunar markazlar xizmatining samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari

Ijtimoiy mexanizmlar	Iqtisodiy mexanizmlar
<ul style="list-style-type: none"> – mehnat bozorida past raqobatbardoshlikka ega aholi guruhlarini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini shakllantirish; – ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini ish bilan bandligiga ko'maklashish; – ishsizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash; – ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni ishga joylashtirish bo'yicha kvotali ish o'rinlarini shakllantirish; – ijtimoiy infratuzilmani rivoj-lantirish; – ish o'rinlari tuzilishi va sifati o'zgarishi moslashuviga ko'maklashish; – yollashda bajariladigan ishlarga qo'yiladigan talabga ishchi kuchi sifat tarkibi muvofiqligini ta'minlash; – mehnat bozorida turg'un talab mavjud bo'lgan kasblarga o'qitish va qayta o'qitish xizmati; – tashqi va ichki mehnat migrasiyasini ijtimoiy rag'batlantirish. 	<ul style="list-style-type: none"> – qayta ishlash sanoati va ijtimoiy infratuzilma korxonalarida yangi ish o'rinlari yaratgan korxonalariga soliq va kreditlar bo'yicha imtiyozlar berish; – kichik biznes subyektlari, ayniqsa oilaviy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlash; – kichik biznes subyektlarini imtiyozli kreditlash bo'yicha shart-sharoitlarni yaratish; – ish bilan bandlikni zamonaviy turlaridan unumli foydalanish; – qishloq xo'jaligida intensiv rivojlanishni ta'minlashga yo'naltiril-gan yangi ish o'rinlarini shakllantirish; – yakka tartibdagi mehnat faoliyatini rag'batlantirish va qayta ishlash sanoatining asosiy mahsulotlarini eksport qilishni qo'llab-quvvatlash; – shahar va tuman bandlikka ko'maklashish markazlari xizmatlarini takomillashtirish.

1-rasm. Kasb-hunar markazlar xizmatining samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari⁸

Ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solishning iqtisodiy mexanizmi qisqa muddatli yoki o'rta muddatli rejalashtirishning muhim elementi sifatida taktik ahamiyat kasb etadi. Taktik vazifalar strategik maqsadlar doirasida amalga oshiriladi, chunki ko'p hollarda bir vazifa boshqasiga bog'liq holda bajariladi. Shu bois mehnat bozorini tartibga solish mexanizmi o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchan bo'lishi, tartibga solishning aniq usullarini to'g'ri tanlash hamda mehnat bozori konyunkturasidan kelib chiqib, ustuvor masalalarning hal etilishini ta'minlashi lozim.

O'zbekistonda so'nggi yillardagi keng ko'lamli islohotlar natijasida sifat va miqdor jihatidan samarali bandlikni ta'minlashga yo'naltirilgan yangi tizim shakllandi. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan vazifalarga muvofiq, mahallalarda yangi institut sifatida tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi joriy qilindi. Mazkur strategiya doirasida davlat-xususiy sheriklik asosida sport va madaniyat inshootlari, ijodiy klublar, kasb-hunar o'qitish markazlari hamda bandlikka ko'maklashish obyektlarini yaratish, shuningdek tuman (shahar) hokimining yordamchisi institutini samarali yo'lga qo'yish orqali yoshlar bandligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi⁹ [9].

Aholini ish bilan ta'minlashning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi o'z mohiyatiga ko'ra ishchi kuchiga talab va taklifni shakllantiruvchi elementlar majmuasidan iboratdir. Bunday mexanizm – bu ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif nisbatlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi, ularni mazmunan boyituvchi va muvofiqlashtiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy shakllar hamda omillar tizimi sifatida rivojlanadi.

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni, lex.uz



XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlatning ish bilan bandlik siyosati respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy strategiyasining ajralmas qismi bo'lib, mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, uni rivojlantirish hamda iqtisodiyot sohalari o'rtasida ishchi kuchini oqilona taqsimlashni ko'zda tutadi. Ushbu siyosat mehnat resurslarini tarmoqlar va bandlik shakllari bo'yicha qayta taqsimlash orqali ijtimoiy jihatdan maqbul bandlik darajasini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, respublikada zamonaviy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish ijtimoiy-mehnat munosabatlarining nazariy va amaliy jihatdan eng dolzarb masalalaridan biridir. Ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif sifatini yaxshilashga, milliy daromad o'sishiga hamda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, ishchi kuchining raqobatbardoshlik darajasi, avvalo, ish beruvchilarning talablari hamdajamiat va mintaqarivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy darajasi bilan belgilanadi. Raqobatbardoshlikni baholash uchun ish beruvchi ehtiyojlarini aniq aniqlash, mehnat resurslarining sifat tarkibini takomillashtirish, ish joylarining samaradorligini oshirish va zamonaviy xizmat turlarini joriy etish zarur. Shu orqali mehnat bozori barqarorligi va aholi bandligi darajasi yanada mustahkamlanadi.

FOYDALANILGASIN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Глобальные тенденции занятости молодежи в 2024 г. intrel@ach.gov.ru
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон «Ўзбекистон — 2030» стратегияси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон; 29.12.2023 й., 06/23/214/098
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ҳар бир оила-тадбиркор” Дастурини амалга ошириш тўғрисида қарори. 2018 йил. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.06.2018 й., 07/18/3777/1325 – сон. Lex.uz.
4. <http://www.mspbank.ru>; <http://www.giac.ru>; <http://www.m-economy.ru>.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60 сонли Фармони. lex.uz
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тадбиркорлик фаолиятини жадал ривожланишини таъминлашга, хусусий мулкни ҳар томонлама ҳимоя қилишга ва ишбилармонлик муҳитини сифат жиҳатидан яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги” Фармони. www.Lex.uz.
7. Абдурахманова Г. Қ. Миллий иқтисодиётни модернизациялаш шaroитида аҳолининг иш билан бандлигини тартибга солиш (Ўзбекистон Республикаси мисолида). Иқтисод фанлари номзодлик диссертацияси. Т.:Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси иқтисодиёт институти - 2010.-36-37 б.
8. Жўраев Т.Т. Иқтисодий ресурслар доиравий айланиш жараёнининг назарий асослари ва самарадорлигини ошириш омиллари. – Тошкент: ИҚТИСОД-МОЛИЯ, 2006. – Б. 14.
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январдаги “2022—2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60 сонли фармони. Lex.uz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>